QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QDTU

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026
№11

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENIKA

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

11-jild
11-son
Noyabr, 2026

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and practical journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Muassis:
Qarshi davlat texnika universiteti
Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Faks: +998 (75) 221 1395
innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a’zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor
Shoxujayeva Zebo Safoyevna i.f.d., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Ubaydullayev G‘ayrat Zuvaytovich -i.f.n., dotsent
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent
Safarov Farhod Anvarovich - i.f.d., dotsent

ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Учредитель:
Каршинский государственный технический университет
Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:
180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Факс: +998 (75) 221 1395
E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)
Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор
Навруз-заде Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбонович – д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор
Шохужаева Зебо Сафоевна – д.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент
Эркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор
Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н. (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Убайдуллаев Гайрат Зувайтович – к.э.н., доцент
Ходжакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Алимова Муниса Юлчиевна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н. (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Жонузоков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Ходжанова Гулшода Отамуродовна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф.э.н. (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н. (PhD)
Панжиев Самижон Аликулович – PhD, доцент
Сафаров Фарход Анварович – д.э.н., доцент

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.11.11.2026.7 *Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi*

TURIZM SOHASI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Ibodova Mohinur Toshtemir qizi, Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ТУРИСТСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Ибодова Мохинур Тоштемир кизи, Абдиев Алимардон Чоршанбиевич

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL-ECONOMIC MECHANISMS FOR DEVELOPING TOURISM INFRASTRUCTURE

Ibodova Mohinur Toshtemir qizi, Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, uning hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi o‘rni hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, turistik hududlarda transport, joylashtirish, ovqatlanish, axborot-kommunikatsiya va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Turizm infratuzilmasining samaradorligini oshirishda davlat-xususiy sheriklik, investitsiyalarni jalb qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va hududiy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot yakunida turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm infratuzilmasi, turistik xizmatlar, investitsiya, transport tizimi, joylashtirish vositalari, davlat-xususiy sheriklik, raqamlashtirish, hududiy rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты развития инфраструктуры сферы туризма, её роль в обеспечении регионального экономического роста, а также вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов. Кроме того, освещены приоритетные направления развития транспортной, гостиничной, ресторанной, информационно-коммуникационной и инженерной инфраструктуры в туристских регионах. Особое внимание уделено возможностям повышения эффективности туристской инфраструктуры посредством государственно-частного партнёрства, привлечения инвестиций, внедрения цифровых технологий и рационального использования региональных ресурсов. По итогам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на комплексное развитие туристской инфраструктуры.

Ключевые слова: туристская инфраструктура, туристские услуги, инвестиции, транспортная система, средства размещения, государственно-частное партнёрство, цифровизация, региональное развитие, экономическая эффективность.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of tourism infrastructure development, its role in promoting regional economic growth, and ways to improve its organizational and economic mechanisms. It also highlights the priority areas for developing transport, accommodation, catering, information and communication, and engineering infrastructure in tourist destinations. Particular attention is paid to opportunities for enhancing the efficiency of tourism infrastructure through public-private partnerships, investment attraction, the introduction of

digital technologies, and the rational use of regional resources. Based on the research findings, scientific and practical proposals and recommendations aimed at the integrated development of tourism infrastructure have been developed.

Keywords: tourism infrastructure, tourism services, investment, transport system, accommodation facilities, public-private partnership, digitalization, regional development, economic efficiency.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi xizmatlar sektorining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi, yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizmning barqaror rivojlanishi esa, eng avvalo, mazkur sohaning moddiy-texnik bazasi va infratuzilmaviy ta’minot darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Turizm infratuzilmasi turistlarning sayohatni amalga oshirishi, hududda qulay harakatlanishi, yashashi, ovqatlanishi, dam olishi va turistik xizmatlardan foydalanishini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq iqtisodiy, tashkiliy hamda texnologik tizim hisoblanadi. Ushbu tizimning yetarli darajada rivojlanmaganligi turistik salohiyatdan samarali foydalanishga to‘sqinlik qiladi, xizmatlar sifatini pasaytiradi va hududning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy-rekreatsion resurslari va geografik joylashuvi turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, hududlarda turistik obyektlarga olib boruvchi yo‘llar, zamonaviy joylashtirish vositalari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, sanitariya-gigiyena sharoitlari va raqamli axborot xizmatlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va davlat hamda xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilmoqda. Jumladan, N. Arabov, D. Nasimov, B. Janzakov va boshqa mualliflar (2024) tomonidan amalga oshirilgan “Shaping the Future of Uzbekistan’s Tourism: An In-depth Analysis of Infrastructure Influence and Strategic Planning” nomli tadqiqotda O‘zbekistonning 14 ta hududida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi transport, joylashtirish vositalari, turistik obyektlar va xizmatlar sifati asosida kompleks baholangan[1]. Mualliflarning asosiy ilmiy yangiligi hududlarni infratuzilmaviy rivojlanish darajasiga ko‘ra tasniflash hamda turistik talab va infratuzilmaviy taklif o‘rtasidagi mutanosiblikni baholash yondashuvini ishlab chiqishdan iborat. D. Saidova “Problems of Infrastructure Development of Tourism Industries in Uzbekistan” nomli ilmiy ishida mamlakatimizda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni tahlil qilib, innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va infratuzilmaviy xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini asoslagan[2]. Xorijiy tadqiqotchilar I. Gutierriz, J.J. Ferreira va P.O. Fernandes (2025) “Digital Transformation and the New Combinations in Tourism: A Systematic Literature Review” nomli tadqiqotida turizm sohasidagi raqamli transformatsiyaga oid ilmiy ishlarni tizimli tahlil qilib, raqamli texnologiyalarning turistik korxonalar faoliyati va xizmatlar samaradorligini oshirishdagi rolini ochib bergan[3]. Umuman olganda, mazkur ilmiy tadqiqotlar tahlili turizm infratuzilmasini rivojlantirishda hududiy ixtisoslashuv, investitsiyalarni samarali taqsimlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarining muhimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda transport, joylashtirish, muhandislik-kommunikatsiya, servis va raqamli infratuzilmani yagona tashkiliy-iqtisodiy tizim sifatida rivojlantirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda infratuzilmaviy loyihalarning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi. Mazkur holat ushbu maqolada turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasini tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, umumlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari hamda ularning hududiy turizm rivojlanishiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan funksional yondashuv qo‘llanildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosini turizm infratuzilmasini o‘zaro bog‘liq tarkibiy elementlardan tashkil topgan yaxlit iqtisodiy tizim sifatida baholash tashkil etadi. Bunda infratuzilmaning rivojlanish darajasi, xizmatlar sifati, investitsion faollik va turistik oqimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm infratuzilmasi hududning turistik jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, uning rivojlanish darajasi turistlarning hududni tanlash qaroriga, sayohat davomiyligiga va xarajatlar tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli infratuzilmani rivojlantirish jarayonida uning tarkibiy elementlarini kompleks ravishda takomillashtirish zarur.

Turizm infratuzilmasini shartli ravishda quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

1-jadval.

Turizm sohasi infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari va ularning funksional ahamiyati

№	Infratuzilma yo‘nalishlari	Tarkibiy elementlari	Asosiy funksional ahamiyati
1	Transport-logistika infratuzilmasi	Avtomobil yo‘llari, temiryo‘l, aeroportlar, jamoat transporti	Turistlarning hududlararo va hudud ichida erkin harakatlanishini ta’minlash, olis va tog‘li hududlarning turistik salohiyatini iqtisodiy muomalaga jalb etish.
2	Joylashtirish va umumiy ovqatlanish infratuzilmasi	Mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, xostellar, dam olish maskanlari, restoran va kafelar	Turistlarning yashash va ovqatlanish ehtiyojlarini qondirish, hududda qolish muddatini uzaytirish hamda xizmatlar sifatini oshirish.
3	Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi	Elektr energiyasi, ichimlik suvi, kanalizatsiya, sanitariya-gigiyena va chiqindilarni boshqarish tizimlari	Turistik obyektlarning uzluksiz faoliyatini ta’minlash, ekologik barqarorlikni saqlash va qulay xizmat ko‘rsatish sharoitlarini yaratish.
4	Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi	Raqamli ma’lumotlar bazasi, elektron bronlash, interaktiv xaritalar, virtual sayohatlar, onlayn to‘lov tizimlari	Turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, axborot almashinuvini tezlashtirish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonini raqamlashtirish.
5	Ijtimoiy va servis infratuzilmasi	Tibbiy yordam, xavfsizlik xizmatlari, savdo, bank xizmatlari, sanitariya obyektlari, turistik axborot markazlari	Turistlarning xavfsizligi va qulayligini ta’minlash, qo‘shimcha xizmatlar ko‘lamini kengaytirish hamda turistik hudud jozibadorligini oshirish.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, turizm infratuzilmasining beshta asosiy tarkibiy yo‘nalishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning kompleks rivojlanishi hududning turistik jozibadorligi, xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli mazkur yo‘nalishlarni alohida emas, balki yagona tashkiliy-iqtisodiy tizim sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, ayrim tizimli muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, turistik obyektlarning transport bilan ta’minlanish darajasidagi hududiy tafovutlar, xususiy investitsiyalarni jalb etishdagi cheklovlar, xizmatlar sifatining bir xil emasligi va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining yetarli darajada shakllanmaganligi shular jumlasidandir.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirishda hududiy ixtisoslashuv va iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga asoslangan yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq.

Xususan, Qashqadaryo viloyatida Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Dehqonobod va boshqa hududlarning tabiiy hamda tarixiy-madaniy salohiyatidan kelib chiqib, infratuzilmaviy loyihalarni hududlar kesimida shakllantirish mumkin. Bunda Shahrisabz-Kitob-Miraki-G‘elon yo‘nalishida transport, joylashtirish, ovqatlanish va raqamli axborot xizmatlarini o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish taklif etiladi:

❖ Turistik infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish.

❖ Turistik hududlarda transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini kompleks rivojlantirish.

❖ Kichik biznes subyektlarini turistik xizmatlar ko‘rsatish jarayoniga keng jalb etish va ularga iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini qo‘llash.

❖ Turistik xizmatlarni raqamlashtirish, elektron bronlash va onlayn to‘lov tizimlarini kengaytirish.

❖ Turistik infratuzilma loyihalarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini baholash tizimini joriy etish.

❖ Mahalliy aholi ishtirokida oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik markazlari va gastronomik turizm obyektlarini rivojlantirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi turistik hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar eksportini kengaytirish va mahalliy iqtisodiyotda turizmning multiplikativ ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirish hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, turistik xizmatlar bozorini kengaytirish va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish transport, joylashtirish, muhandislik-kommunikatsiya, axborot va servis tizimlarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda takomillashtirilishini talab etadi. Hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirishda investitsiya resurslarini turistik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarga yo‘naltirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Raqamli texnologiyalarni turistik xizmatlar tizimiga

integratsiyalash turistlar uchun axborot olish, bronlash va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda ekologik barqarorlik tamoyillariga rioya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatida turistik yo‘nalishlarni yagona infratuzilmaviy tizim asosida rivojlantirish, ayniqsa, tarixiy-madaniy va tog‘ turizmi resurslarini o‘zaro bog‘lash hududning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish kompleks, tizimli va hududiy yondashuvni talab qiladi. Bunda infratuzilma obyektlarini ko‘paytirish bilan bir qatorda, ularning iqtisodiy samaradorligi, xizmatlar sifati va ekologik barqarorligini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arabov N., Nasimov D., Janzakov B., Khomitov K., Utemuratova G., Abduraimov D., Ismailov B. Shaping the Future of Uzbekistan’s Tourism: An In-depth Analysis of Infrastructure Influence and Strategic Planning // Journal of Eastern European and Central Asian Research. – 2024. – Vol. 11, No. 1. – P. 53–65. – DOI: https://doi.org/10.15549/jeecar.v11i1.1478.
2. Saidova D. A. Problems of Infrastructure Development of Tourism Industries in Uzbekistan // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – Vol. 2, No. 7. – P. 180–185. – DOI: https://doi.org/10.60078/2992-877x-2024-vol2-iss7-pp180-185.
3. Gutierriz I., Ferreira J.J., Fernandes P. O. Digital Transformation and the New Combinations in Tourism: A Systematic Literature Review // Tourism and Hospitality Research. – 2025. – Vol. 25, No. 2. – P. 194–213. – DOI: https://doi.org/10.1177/14673584231198414.
4. Leiper N. The Framework of Tourism: Towards a Definition of Tourism, Tourist, and the Tourist Industry. - Annals of Tourism Research, 1979.
5. Gunn C. A., Var T. Tourism Planning: Basics, Concepts, Cases. - 4th ed. - Routledge, 2002.
6. Inskeep E. Tourism Planning: An Integrated and Sustainable Development Approach. - New York: Van Nostrand Reinhold, 1991.
7. UN Tourism. International Recommendations for Tourism Statistics 2008. - United Nations, 2010.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-549, 2019-yil 18-iyul.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-598-son, 25.12.2019.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekistonda turizm statistikasi. – Toshkent, 2024.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekistonda xizmatlar sohasi statistik ma’lumotlari. – Toshkent, 2024.
12. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. – Geneva: United Nations, 2024.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Ibodova Mohinur Toshtemir qizi Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti / Ибодова Мохинур Тоштемир кизи Базовый докторант, Каршинский государственный университет / Ibodova Mokhinur Toshtemir kizi Basic Doctoral Candidate, Karshi State University
E-mail: mohinuribodova80@gmail.com

2. Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich Qarshi Davlat Universiteti o’qituvchisi, i.f.n. dots. / Абдиев Алимардон Чоршанбиевич Преподаватель, Каршинский государственный университет; кандидат экономических наук, доцент / Abdiev Alimardon Chorshanbievich Lecturer, Karshi State University; Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
E-mail: abdiyevalimardon008@gmail.com